

**O'RTA ASRLARDA MUSULMON
ME'MORCHILIGINING O'ZIGA XOS
HUSUSIYATLARI (JARQO'RG'ON MINORASI
QURILISHI MISOLIDA)**

*Ahmedov Bekzod Bahtiyorovich
Termiz davlat universiteti,
erkin tadqiqotchisi*

**ОСОБЕННОСТИ МУСУЛЬМАНСКОЙ
АРХИТЕКТУРЫ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ (НА
ПРИМЕРЕ ПОСТРОЕНИЯ БАШНИ
ДЖАРКУРГОН)**

*Ахмедов Бекзод Бахтерович
Термезский государственный университет,
независимый исследователь*

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF MUSLIM
ARCHITECTURE IN THE MIDDLE AGES
(EXAMPLE OF THE CONSTRUCTION OF THE
JARKURGON TOWER)**

*Ahmedov Bekzod Bakhtiyorovich
Termiz State University,
freelance researcher*



<https://orcid.org/0009-0004-6931-2245>

E-mail:
bekzodjon7280@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan jadal rivojlanayotgan davlat bo'lib, turli millat vakillari o'zaro hamjihat, qardosh yashab, ma'naviy yuksaklikka erishmoqda. Mustaqillik yillarida vatanimiz tarixini ilmiy xolisona o'rganish maqsadida katta ijobiy natijalarga erishilib, moddiy va ma'naviy tariximizni yosh avlod ongiga singdirish sohasida alohida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: iqlim, me'morchilik, uy-joy, tog', pishgan g'isht, tog' oldi, cho'l, qal'a, masjid, tosh, qamish, madrasa, qishloq.

Аннотация: Наша страна – быстро развивающаяся в социально-экономическом и культурном отношении, представители разных национальностей живут в согласии и братстве и достигают духовных высот. За годы независимости достигнуты большие положительные результаты в научном изучении истории нашей страны, проводятся специальные исследования в области внедрения нашей материальной и духовной истории в сознание молодого поколения.

Ключевые слова: климат, архитектура, жилище, гора, жженный кирпич, склон горы, пустыня, замок, мечеть, камень, тростник, медресе, деревня.

Annotation: Our country is a rapidly developing socio-economically and culturally, representatives of different nationalities live in harmony and brotherhood and achieve spiritual heights. In the ears of independence, great positive results have been achieved in order to scientifically study the history of our country, and special researches are being carried out in the field of inculcating our material and spiritual history into the minds of the young generation.

Key words: climate, architecture, housing, mountain, baked brick, mountainside, desert, castle, mosque, stone, reed, madrasah, village.

KIRISH (INTRODUCTION)

O'zbekiston jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan, moddiy va ma'naviy madaniyati yuksalgan diyori hisoblanib, uning maftunkor me'moriy obidalari buning yaqqol isbotidir. Tarixiy jamiyatning ilk bosqichlaridanoq Surxon vohasi insoniyat tomonidan asos solingan uy-joylar va manzillar maskani hisoblanadi. Bu xil uy-joy, imoratlarining bunyod etilishi esa qadim moziyda odamlarning dastlabki me'moriy obidalar qurilishiga asos solishiga imkoniyat yaratib berishi bilan tahsinga sazovordir.

Markaziy Osiyo turarjoy imoratsozligi ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyot davomida bir qator me'moriy yechimlarni o'zida mujassam etgan. Bu haqidagi ma'lumotlarni arxitektura, tarixiy o'lkashunoslik, arxeologik, etnografik, numizmatik, san'atshunoslik sohalarida to'plangan ashyoviy manbalar orqali o'rganishimiz mumkin [1:214].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD/(MATERIALS AND METHODS)

O'zbekiston hududining janubida joylashgan Surxon vohasining yarim o'troq aholisi o'z turarjoylarini barpo qilishda, tabiiy-geografik iqlim sharoiti va an'anaviy turmush tarzi va mashg'ulotlariga asoslanishgan. Ming yillar davomida uy-joylarni barpo etishda, hayot sinovlaridan o'tgan an'analarning ijobiy tomonlarini o'zlashtirganlar.

IX-X asrlardan boshlab butun Movarounnahrda bo'lgani singari Surxon vohasida ham bu davrda arxitektura sohasi jadal rivojlangan. Jumladan, Termizda va Chag'aniyonda arxitektura bilan shug'ullanadigan sulolalarning alohida mahallalari mavjud bo'lgan [2:84].

Markaziy Osiyo arxitekturasida qobirg'asimon yagona inshoot Jarqo'rg'on minorasi Musulmon Sharqi o'rta asr shaharlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur joy IX-X asrlar arab manbalarida tilga olingan Sarmangan yoki Charmangan shahriga qiyos qilinadi. Taglik ustidan qad ko'targan adl minoraning yuqori tomoni ingichkalashib boruvchi o'n olti nimaylana ustuni qobirg'asimon yuza hosil qilgan. Taglik qirralaridan birida minora ichidagi burama zinaga eltuvchi arksimon eshik o'rnatilgan.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Minoraning saqlanib qolgan balandligi 21,5 metr, diametri pastda 5,4 metr, yuqori qismida esa 4,1 metrdir. To'rt burchak hoshiyaning tik yo'lida quyidagi matnni o'qish mumkin: "Saraxslik Ali ibn Muhammad ishi". Poydevorning yuqori qismdagi sakkizta to'rtburchak romda quyidagi yozuv bitilgan "... (1) Alloh Taologa baxshida etildi...(2) amir masjidi va minorasi, (3) nusratnishon sipohsolor, (4) buyuk sayyid, adolat homiysi, (5) davlat va din tayanchi, (6) islom va musulmonlar homiysi, (7) Xuroson amiri Abu Said, (8) dindorlar amirining yordamchisi". Oxirgi sakkizinchi to'rtburchakda ikkinchi qator bor, unda yilnomaga to'g'ri keluvchi 5, 0, 2, sonlari bitilgan, bu hijriy bo'yicha minora qurilishi sanasini bildirib, 1108-yilga to'g'ri keladi. Jarqo'rg'on minorasi O'zbekiston hududida saqlanib qolingani musulmon minoralaridan ham eng qadimgisidir. Bugungi kunda minora yon atrofini o'rab olgan anorzorli shinam hovli o'rnida bir vaqtlar pishiq g'ishtdan qurilgan imoratlar mavjud bo'lib, ular orasida eng katta keng ravoqli, ko'p gumbazli machit binosi qad ko'targan. Minora aftidan shu machitga tegishli bo'lsada, ammo unga yondashmay, narirroqda qad ko'targan. Bu haqida uning kirish yo'lagingining Markaziy Osiyoning boshqa minoralarida kuzatilganidek, tutashgan bino tomining balandligi emas, balki yer sathiga deyarli barobar qilib ko'tarilgani ham dalolat beradi. Markaziy Osiyoning shu xildagi yodgorliklari orasida Jarqo'rg'on minorasi hozirgacha ko'rilmagan tanasi, jimjimador o'n oltita tutash yarim ustuni bo'lgan bilan ajralib turadi [3:39].

NATIJALAR (RESULTS)

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amudaryoning quyi oqimi, Sirdaryoning o'rta oqimi va ikki daryo orasida joylashgan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Farg'ona vodiysining azal o'tmishdan yuksak madaniyatga ega bo'lgan davlatlar va shaharlarning makon bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz [7:163]. O'rta Osiyo ham eng qadimgi odamlar qarorgohini o'zida saqlab qolganligini fan e'tirof etmoqda. Eramizdan avvalgi ikkinchi va birinchi ming yilliklarda bu yerda markazlashgan davlatlar mavjud bo'lganligi to'g'risida bir qator ma'lumotlar bor. Chunonchi, o'sha davrda Qadimgi Xorazm davlati mavjud bo'lib, u o'zining tiliga, yozuviga va yuksak

rivojlangan madaniyatiga ega bo'lganligi xususida aytib o'tish mumkin.[4:89]

XULOSA (CONCLUSION)

Markaziy Osiyo yerlari qadimdan yashash uchun qulay hisoblangan va u qadimdan yuksak madaniyatga ega bo'lgan. Mana shu ikki holat o'z navbatida boshqa yurt xalqlarining diqqatini o'ziga tortib kelgan. Natijada bu yerdagi iqtisodiy va madaniy boyliklar ko'p talon-tarojlarga sabab bo'lganligiga tarixning o'zi guvohdir. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O'rta Osiyoni eronlik Ahamoniylar va makedoniyalik Iskandar qo'shinlari istilo etgan bo'lsa, eramizning VII-VIII asrlarida arablar va XIII asrda mo'g'ullar bu erlarni g'orat qiladilar. Bu voqealar orasida esa bir necha martalab turkiy va fors tilida so'zlashuvchi hamda boshqa qabilalar o'rtasida taxt talashib, saltanat almashinishlari bo'lib o'tadi. Mana shu kabi nizo va adovatlar madaniy taraqqiyotni bir necha yuz yilliklarga to'xtatib qo'ydi. Qanchadan-qancha yozma manbalar, tarixiy obidalarining kuli ko'kka sovurildi. Bir qancha xalqlarning tiliyu yozuvlari mushtarakligida qirg'inga uchradi. Lekin har gal ham, garchi katta qiyinchiliklar bilan bo'lsada, asrlar davomida saqlanib kelinmoqda.[5:35].

Shuni alohida e'tiborga olish lozimki, O'rta Osiyo me'morchiligi o'ziga xos ravishda qadimiy me'morchilik an'analari namunalarini bugungi kunda ham davom ettirib, ya'ni xonliklar davrida Markaziy Osiyo turarjoy me'morchiligi o'zi bir alohida madaniy qomus sifatida namoyon bo'lib turibdi [6:25].

Qadimdan to bugungi kungacha aholi yashash manzilgohlari dastlab biz o'rganadigan qishloq tushunchasi bilan bevosita bog'liq

hisoblanadi. Chunki, qishloq hududida dastlabki qadimgi yashash manzilgohlari paydo bo'lgandan buyon hozirgacha uzoq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar sodir bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. Косточкин В.В. О некоторых понятиях в области архитектурного наследия. "Архитектура СССР", № 9, 1972.-С.21-22.
2. Кармишева. Б. Х. Очерки этнической истории южной раёнов Таджикистана и Узбекистана. -М. 1976.
3. Бартольд В.В. История Туркестана // Соч.т.II.-М., 1963.,
4. Турсунов С. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. Сурхондарё этнографияси.-Т., 2006.,
5. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент, 1994. - Б. 198.
6. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандари.-Т., 1982.
7. Косточкин В.В. О некоторых понятиях в области архитектурного наследия. "Архитектура СССР", № 9, 1972.
8. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. – Т., Adolat, 2004. – 208 bet.
9. Шаниязов К. Узбеки – карлуки: (Ист.-этногр. очерк) / Акад. наук УзССР. Ин-т истории и археологии. - Ташкент: Наука, 1964. - 195 с.

